

ADAPTIV INTELEKTNING NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI

Ro`zmetova Gulbahor Erkinboy qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy dunyoda ta'lim sohasida sun'iy intellekt texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. Sun'iy intellekt bizning kundalik vazifalarimizni osonlashtirishga yordam beradi. To'g'ri so'rovlar bilan siz bajarmoqchi bo'lgan har qanday harakat bir necha soniya ichidabajarilishi mumkin. Bu sun'iy intellektning ko'plab afzalliklaridan biri. Sun'iy intellekt o'rganish va u haqda ma'lumotlarga ega bo'lish davr talabidir. Bugungi kundagi globallashtirish davrida inson tafakkuriga, bilimi va aqliy salohiyatiga bo'lgan talab keskin oshib bormoqda. Inson faqat bilimni o'zlashtiruvchi emas, balki uni amaliyotda qo'llay oluvchi, yangi sharoitlarga moslasha oluvchi shaxs sifatida shakllanishi zarur.

Kalit so'zlar: strategiya, sun'iy intellekt, adaptiv, intellekt, refleksiya, kognitiv psixologiya, ijtimoiy muhit.

Adaptiv intellekt — bu insonning o'zgaruvchan muhit sharoitlariga moslashish, yangi vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish qobiliyati hisoblanadi. U insonning ijodkorligini, hissiy barqarorligini, tafakkur moslashuvchanligi bilan chambarchas bog'laydi.

Zamonaviy ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan texnologik taraqqiyot sharoitidayangilanib, pedagogik jarayonni yanada samarali qilish yo'llarini izlamoqda. Shu jumladan, sun'iy intellekt (SI) ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi so'nggi yillarda katta e'tiborni tortib, o'qitish uslublarini o'zgartirishga va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Sun'iy intellektning rivojlanishi ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, individual yondashuvni kuchaytirish va o'quvchilarni samarali boshqarish imkonini bermoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning asosiy afzalliklari orasida ta'lim jarayonini moslashtirish, adaptiv o'qitish tizimlarini rivojlantirish va o'qituvchilarga yuklamanika maytirish kabi jihatlar mavjud.

Masalan, sun'iy intellekt asosida ishlovchi ta'lim platformalari o'quvchilarning qobiliyatlari va bilim darajasini doimiy ravishda tahlil qilib, ularga mos keladigan o'quv materiallarini taqdim etishi mumkin.

Bunday yondashuv har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashgan holda o'quv jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Biroq, sun'iy intellektni pedagogik jarayonda qo'llash muayyan cheklorlar va muammolarni ham yuzaga keltiradi.

Jumladan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi insoniy munosabatlarning kamayishi, texnologik vositalarga haddan tashqari bog'liqlik, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchilarning yetarlicha malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega, chunki noto'g'ri qo'llash ta'lim

sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishim mumkin. Shu bois, ushbu tadqiqotda pedagogik jarayonda sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va cheklovlari chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarini baholash, ularning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash va shu bilan birga, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan cheklovlarni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu tadqiqot natijalari pedagogik jarayonda sun'iy intellektdan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yangi innovatsion yondashuvlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Intellekt tushunchasi ilk bor XX asr boshlarida psixologiyada keng o'rganila boshladi. A. Bine, D. Veksler, J. Piajening tadqiqotlari inson tafakkurining o'lchanadigan va o'zgaruvchi jihatlarini ochib berdi. Biroq adaptiv intellekt atamasi keyinchalik — texnologik taraqqiyot, inson psixologiyasining integratsiyasi jarayonida shakllandi.

Adaptiv intellekt nazariyasiga ko'ra, inson tafakkuri doimiy o'zgaruvchan tizim bo'lib, u atrof-muhit, ijtimoiy muhit, ta'lim va texnologik yangiliklarga qarab yangilanadi. Bu nazariya kognitiv psixologiya, neyropsixologiya va ta'lim texnologiyalari bilan uzviy bog'liq.

Masalan, J. Piajening “moslashuv nazariyasi”ga ko'ra, har qanday bilim inson ongida assimilyatsiya (o'zlashtirish) va akkomodatsiya (moslashish) jarayonlari orqali shakllanadi.

Bu fikr adaptiv intellektning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Adaptiv intellektni tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlar quyidagilardir:

1. Kognitiv moslashuvchanlik – yangi bilim va tajriba asosida fikrlash jarayonini qayta tuza olish qobiliyati.

2. Hissiy intellekt – o'z va boshqalar hissiyotlarini anglash, boshqarish, empatiya orqali to'g'ri qaror qabul qilish.

3. Ijtimoiy intellekt – jamiyatda o'z o'rnini topish, muloqotda samarali bo'lish, boshqalar fikrini tushunish.

4. Ijodiy tafakkur – mavjud tajriba asosida yangicha yechimlar topish, noodatiy fikr yuritish.

5. Metakognitiv nazorat – o'z fikrlash jarayonini kuzatish, baholash va kerak bo'lsa, o'zgartirish qobiliyati.

Ushbu komponentlarning uyg'unligi insonni faqat bilimdon emas, balki moslasha oladigan, raqobatbardosh va barqaror tafakkur egasi qiladi.

Adaptiv intellektning rivojlanish mexanizmlari inson hayotining turli bosqichlarida shakllanadi va quyidagi mexanizmlar orqali rivojlanadi:

1. Tajriba va xatolardan o'rganish – inson har bir muvaffaqiyatsizlikni tahlil qilib, undan to'g'ri xulosa chiqarsa, bu uning intellektini yanada moslashuvchan qiladi.

2. Muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish – noaniqlik sharoitida fikrlashni faollashtiradi.

3. Refleksiya – o'z faoliyatini tahlil qilish, o'zgarishlarga tayyor bo'lish.

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish – zamonaviy axborot oqimida keraklisini ajratib olish qobiliyatini kuchaytiradi.

5. Hamkorlikda o'qish – jamoada ishlash, turli fikrlarni tinglash, murosaga kelish insonning adaptiv fikrlashini kengaytiradi.

Bu mexanizmlar ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'quvchilarda adaptiv intellektni rivojlantirish uchun interfaol metodlardan, muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish va STEAM yondashuvlaridan foydalanishlari zarur.

Adaptiv intellektning ahamiyati bugungi tez o'zgarayotgan dunyoda yanada ortmoqda. U insonning:

- yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirishi,
- murakkab hayotiy muammolarga yechim topishi,
- stress holatlarini yengib o'tishi,
- ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek, adaptiv intellekt insonning kasbiy muvaffaqiyati va shaxsiy farovonligiga bevosita ta'sir qiladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori adaptiv intellektga ega insonlar o'z hayotidan ko'proq qoniqish hosil qiladi, ularning stressga chidamliligi va ijodiy faolligi yuqori bo'ladi.

Adaptiv intellektni rivojlantirishda ta'limning roli. Bunda zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchini tayyor bilimni yod oluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, tahlil qiluvchi va moslasha oluvchi shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak. Buning uchun quyidagilar muhim:

- O'quv jarayonida ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar yaratish;
- Interfaol metodlar (munozara, rol o'yinlari, klaster, aqliy hujum)dan foydalanish;
- O'quvchilarda tanqidiy va moslashuvchan tafakkurni shakllantirish;
- Har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini inobatga olish.

Shunday yondashuv natijasida o'quvchi o'z imkoniyatlarini anglaydi, o'zini rivojlantirishga intiladi va atrofdagi o'zgarishlarga tez moslashadi.

Adaptiv intellekt — bu insonning o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslasha olish, yangiliklarga ochiq bo'lish va muammolarni samarali hal etish qobiliyatidir. U inson tafakkurining eng yuqori bosqichi hisoblanadi.

Buni rivojlantirish uchun ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, muammoli va ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi usullar keng joriy etilishi lozim. Faqat shundagina inson o'zini har qanday sharoitda anglay oladigan, yangilik yaratadigan va jamiyatga foyda keltiradigan yetuk shaxsga aylanishi mumkin.

Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, samaradorligini oshirish va o'qituvchilarga yordam berish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Biroq, bu jarayon insoniy omilning kamayishi, texnologik qaramlik va axborot xavfsizligi kabimuammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellekt ta'lim jarayonida o'qituvchini to'ldiruvchi vosita sifatida foydalanilishi, o'qituvchilar malakasini oshirish choralari ko'rilishi va axborot xavfsizligi ta'minlanishi zarur.

To'g'ri yondashuv orqali sun'iy intellekt ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynashi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent, 2008.
3. Qudratov, T. B. (2021). Ta'limda xalqaro tajribalar. Вестник магистратуры, (1-3 (112)), 66-67.
4. Umumiy psixologiya Sh. Sh. Borotov, 2020
5. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy Pedagogika. Darslik//T.: Fan va texnologiya nashiriyoti, 2013 y., -862 b.
6. Ismoilov, O. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va sun'iy intellekt. Toshkent:O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.